

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**MUTAXASSISLIK FANLARIGA KIRISH
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 60112300 - Texnologik ta'lim

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
DEPARTMENT OF CHEMISTRY



Fan/Modul kodi RabAM 2008	O'quv yili 2022-2023	Semestr I	Kreditlar 10	
Fan/Modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4-4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislik fanlariga kirish	120 Ma'ruza:60 Amaliy:60	180	300
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsadi birinchi bosqich talabalarida tanlagan Texnologik ta'limi bo'yicha qiziqishlarini yanada oshirish, kasb faoliyati yuritish obyektlari va turlari, O'zbekistonda ta'limning huquqiy asoslari, Davlat ta'lim standarti (DTS)ning mazmun-mohiyati, Respublika oliy ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasalarida o'quv, ilmiy-tadqiqot va tarbiyaviy jarayonlar va ularning me'yoriy asoslari haqida tushuncha va bilimlarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek pedagogika, psixologiya hamda maxsus fanlardan oladigan bilimlarini mujassamlashtirgan holda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mutaxassislik fanlarini o'rganishga oid boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurolantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi -birinchi bosqich talabalarida o'zi tanlagan Texnologiya ta'limi yo'nalishiga bolgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish, ularga kelajakda kasbiy faoliyat yuritish obyektlari va turlarini tanishtirish;</p> <p>-Respublika ta'lim tizimi va uning huquqiy asoslari, Davlat ta'lim standartlari va oliy ta'limni universitet faoliyati misolida amalga oshirilishi to'g'risida ma'lumotlar berish;</p> <p>-mutaxassislik fanlaridan talabalarda umum mehnat va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;</p> <p>-talabalarni texnologik ta'lim mutaxassislik fanlarining maqsad va vazifalari,</p>			

o'quv rejasida tutgan o'rni bilan tanishtirish;

-pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitishni tashkil etishning dastlabki tushunchalini sakllantirish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatish;

-fandan darslarini tashkil qilishni, rejalashtiruvchi xujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1- semestr uchun

1-mavzu. Mutaxassislik fanining o'qitishga qo'yiladigan talablar, maqsad va vazifalar(2s).

Mutaxassislik fanlarini o'qitishga qo'yiladigan talablar, maqsad va vazifalar Texnologiya ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash miliy dasturi"da texnologiya faniga oid g'oyalarning aks ettirilishi.

2- mavzu. Texnologiya fani va uning vazifasi(2s).

Texnologiya fanining mazmuni va fanning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar, Buyuk mutafakkirlarning texnologiya faniga oid fikrlari. Umumiy o'rta ta'limning texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.

3-mavzu. Maktab o'quv rejasida texnologiya fanining qo'yilishi, uning tarixiy taraqqiyoti(2s).

O'rta Osiyoda Mehnat ta'limi va tarbiyasining tarkib topishi. Maktab o'quv rejasining mazmuni va texnologiya fani darslarining o'quv rejadagi o'rni. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari

4-mavzu.1-9sinflarda mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash mazmuni(2s).

Dastur mazmuni va uning yo'nalishlari. 1-4 sinf o'quvchilarini tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar. 5-7 sinflarda umumiy mehnat tayyorgarligi. 8-9 sinf kasbiy tayyorgarlik mazmuni. Akademik litsey va kasb- hunar maktablariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rish uchun bilim, ko'nikmalarni shakllantirish.

5-mavzu."Texnologiya va dizayn" yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallaashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar(2s).

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar, mashg'ulotlar ishlab chiqarish). Metallga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar). Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash. Elektrotexnika ishlari.

6-mavzu. “Servis xizmati” yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar(2s).

Pazandachilik asoslari (oziq-ovqat mahsulotlari, asbob-uskunalar va moslamalar, taom tayyorlash texnologiyasi). Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi). Buyumlarini ta‘mirlash.

7-mavzu. Кредит модуль тизимига кириш

Кредит модуль тизими хақида тушунча. Таълим дастури тузилмаси. Ўқув жараёнини режалаштириш, мониторинги ва таълим сифатини таъминлаш. Баҳолаш, баҳоларни конвертация қилиш. ECTS тизими бўйича киритиладиган қўшимча лавозимлар ва уларнинг функциялари.

8-mavzu. Плагиат ва унга йўл қўймаслик талаблари. Плагиат хақида тушунча, антиплагиат хақида ҳуқуқий ва меъёрий ҳужжатлар. Муаллифлик ҳуқуқи. Ҳаммуаллифлик хақида тушунча. Антиплагиат дастурлари: локал ва глобал (хорижий ва республика)

9-mavzu. Texnologiya fani bo‘yicha amaliy darslarni tashkil qilish metodikasi(2s).

Amaliy darsga tayyorgarlik. Joriy, oraliq va yakuniy yo‘riqnomalarni o‘tkazish tartibi. Dars jarayonida o‘qituvchining vazifasi. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga e‘tibor. Darsni yakunlash.

10-mavzu. Texnologiya fanida baholash mezonlari (2s).

Texnologiya fanida baholash turlari. Texnologiya fani darslari jarayonida o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari. Baholashni obektivligi va differensialligi. Texnologiya fani darslarida baho turlari (amaliy, nazariy). Baholashda hisobga olinadigan omillar. Reyting tizimi asosida baholash.

11-mavzu. Yog‘ochlarga ishlov berish texnologiyasi o‘quv ustaxonasini tashkil etish va jixozlash(4s).

Yog‘ochga qo‘lda ishlov berish texnologiyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish. O‘qituvchining ish o‘rni. O‘quvchining ish o‘rni. Asbob-uskuna va moslamalar. Sanitariya-vgigiyena va texnika xavfsizligi talablari.

12-mavzu. Metallarga ishlov berish texnologiyasi o‘quv ustaxonasini tashkil etish va jixozlash(4s).

Metallarga qo‘lda ishlov berish texnologiyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish. O‘qituvchining ish o‘rni. O‘quvchining ish o‘rni. Asbob-uskuna va moslamalar. Sanitariya-vgigiyena va texnika xavfsizligi talablari.

13 - mavzu. Pazandachilik asoslari xonalari va unga qo‘yiladigan talablar(2s).

Pazandachilik asoslari xonalari va unga qo‘yiladigan talablar. Xonaning o‘quv, moddiy-texnika bazasi. Xonasidagi jixozlar. Pazandachilik ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi koidalariga rioya qilish talablari.

14 – mavzu. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha mashg'ulotlar quyidagilargan talablar(2s).

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha mashg'ulotlarga qo'yiladigan talablar.Xonaning o'kuv, moddiy-texnika bazasi. Xonaning zaruriy xujjatlari. O'quv-tikuv ustaxonlarida xavfsizlik texnikasi qoidalari

15 – mavzu. Sinfдан va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish(2s).

Maktab sharoitida to'garaklar tashkil qilish. Sinflar, maktablar, tumanlararo ko'rgazmalarni tashkil qilish metodikasi. Maktabdan tashqari to'garaklarga jalb qilish. Fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.

16- mavzu. To'garak ishlarini rejalashtirish va tashkillashtirish (2s)

To'garak mashg'ulotining rejasini tuzish.To'garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish.O'quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmalari.

17-mavzu.Xalq hunarmandchiligi texnologiyasidan o'qitishni tashkil qilish(2s).

Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan materiallarni o'rgatish metodikasi. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob - uskunalar. Xalq hunarmandchiligi usullarini o'rgatish va buyum tayyorlash.

18-mavzu. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish va jixozlash(2s).

Fanning maqsad va vazifalari.Bozor mimosabatlari sharoitida ijodiy faolyatning ahamiyati.Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda mazkur fan ning tutgan o'rimi.Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash bo'yicha mashg'ulot larni tashkil etish va jixozlash. Sanitariya-gigiyena va texnika xavfsizligi talablari.

19-mavzu. Materialshunoslik fanining predmeti va mazmuni. (4s).

Materialshunoslik fanining predmeti va mazmuni.Fanning qisqacha tarixi.Yangi konstruksion materiallar ishlab chiqarish masalalari.Fanning boshqa texnika fanlari bilan aloqalari.Metallarning xossalari.

20-mavzu. Metall qirqish dastgohlari haqida umumiy ma'lumotlar(2s).

Materiallarni qirquvchi dastgohlar fanining taraqqiyoti.Dastgohlarga qo'yiladigan asosiy talablar.Metall kesish dastgohlarning klassifikatsiyasi va nomerlanishi.Metall kesish dastgohlarning xarakteristik mexanizmlari.Dastgohlarning elementar mexanizmlari va yuritmalari.Reverslash mexanizmlari.Ilgarilanma-qaytar xarakteristik mexanizmlari.Uzlukli xarakteristik mexanizmlari.

21- mavzu. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fanida "Uy ro'zg'or asoslari" bo'limi mazmuni(2s).

Uy-ro'zg'or asoslari fanining maqsadi. Uy-ro'zg'or asoslari fanining vazifalari. Talabalarda uy-ro'g'or asoslari fani buyicha uy-ro'g'or madaniyati va turmushdagi ta'mir ishlariga oid amaliy kunikma va malakalarni shakllantirish asoslari. Talabalarni intellektual va jismoniy imkoniyatlariga asosan ish topshiriqlarini.

22-mavzu. Standartlashtirishning maqsad vazifalari va qo'yiladigan

talablar(2s).

Standartlash. Standartlashning maqsad va vazifalari. Standartlashtirishning ahamiyati. Standartlash xususida asosiy qoidalar, atamalar va tushunchalar. Standartni tasdiqlash va davlatro'yxatidano'tkazish. Standart loyihasiga tushuntirish xatining tuzilish, bayoni, rasmiylashtirilishi va mazmuni Standartlash to'g'risida Respublika qonuni.

23-mavzu. Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish (2s).

Qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari. Korxonalar ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati. Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarish turlari. Umumiy ovqatlanish tizimida ishlab chiqarish shakllari. Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil qilishning asosiy shakllari.

24- mavzu. "Robototexnika asoslari" faniga kirish(2s).

Robototexnika asoslari fanini o'qitishdan maqsad va fanning vazifalari, avtomatlashtirish jarayonlarining texnik taraqqiyotdagi roli, sanoat robotlarining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, mazkur fanni o'qitishda fanlararo va ta'lim turlari o'rtasidagi bevosita aloqalar.

25- mavzu. Texnologiya fanida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi(2s).

Texnologiya fani(mehnat ta'limi)da ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi. Ekskursiyaning maqsad va vazifalari. Ekskursiya obyektini tanlash. Ekskursiyavga tayyorgarlik. Ekskursiyani o'tkazish. Ekskursiyani yakunlash.

26-mavzu: Pedagogik amaliyotga qoyiladigan metodik talablar (2s).

Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari. Pedagogik amaliyotni tashkil etish.

Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan xujjatlar.

27-mavzu: Kurs ishlarini va bitiruv malakaviy ishi mavzularini tanlash ularni tayyorlashga qoyiladigan talablar(2s).

Kurs ishini va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishning maqsad va vazifalari. Kurs va bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash. Kurs ishlarini va bitiruv malakaviy ishi mavzularini bajarish ketma – ketligi. Bitiruv malakaviy ishining rasmiylashtirilishi.

II.2. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

1-mavzu: Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan tanishish hamda o'rganish(4s).

Reja:

1. Umumiy qoidalar bilan tanishish. Ta'lim tizimi turlarini o'rganish. Ta'lim tizimini boshqarish bilan tanishish.

2. Ta'lim faoliyati va uni tashkil etishni o'rganish.

3. Ta'lim oluvchilar va ota-onalarning huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarliklari va ularni ijtimoiy himoyalashni o'rganish.

4. Ta'lim tashkilotlarini litsenziylash, attestatsiyalash va davlat akkreditsiyasidan o'tkazish tartibi bilan tanishish.

5. Ta'limni moliyalashtirish, nazoratva va xalqaro hamkorlik bilan tanishish.

2-mavzu: Texnologiya fani davlat ta'lim standartini tahlil qilish va o'rga

nish(4s).

Reja:

1. Davlat ta'lim standartining asosiy qoidalari, maqsad va vazifalarini o'rganish.
2. Davlat ta'lim standarti prinsiplarini o'rganish.
3. Davlat ta'lim standartida texnologiya faniga berilgan sharxni o'rganish

3-mavzu: Texnologiya fani dasturi bilan tanishish va o'rganish(4s).

Reja:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida Texnologiya fanining o'rni qanday belgilab berilgan, izoxlang.
2. Tushuntirish xati mazmunini o'rganing va izoxlang.
3. Yo'nalishlar boyicha dastur mazmuni bilan tanishib tahlil qiling.

4-mavzu: Taqvimiy mavzuli rejani ishlab chiqish(4s).

Reja:

1. Yarim yoki bir yilga mo'ljallangan taqvimiy reja bilan tanishish.
2. Taqvimiy rejani har bir elementini izohlash.
3. Taqvimiy mavzuli rejaning ish ob'ekti bilan bog'lash.
4. Tanlangan sinf bo'yicha taqvimiy mavzuli rejani ishlab chihish.

5-mavzu: Nazariy dars reja konspektini ishlab chiqish(4s).

Reja:

1. Nazariy dars reja shakli bilan tanishish.
2. Nazariy dars rejasini ishlab chiqishni o'rganish.
3. Nazariy dars reja konspekt (ishlamnasi)ni ishlab chiqishni o'rganish.

6-mavzu: Amaliy dars reja konspektini ishlab chiqish(4s).

Reja:

1. Amali mashg'ulot reja shakli bilan tanishish. Amali mashg'ulot rejasini ishlab chiqishni o'rganish.
2. Amali mashg'ulot reja konspekt (ishlamnasi)ni ishlab chiqishni o'rganish.
3. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib amali mashg'ulot daras reja konspekt (ishlamnasi)ni ishlab chiqishni o'rganish.

7-mavzu: Yog'ochlarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasini jixozlash va ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish(4s).

Reja:

1. Yog'ochlarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasining tuzilishini o'rganish va tashkil qilish.
2. Yog'ochlarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasini jixozlashni o'rganish va tahlil qilish.
3. Yog'ochlarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasida ish o'rni tashkil qilishni o'rganish va tahlil qilish.
4. Yog'ochlarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasida rioya qilinadigan sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

8-mavzu: Yog'ochlarga mexanik ishlov berish o'quv-ustaxonasini jixozlash va ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish(4s).

Reja:

1. Yog'ochlarga mexanik ishlov berish o'quv-ustaxonasining tuzilishini o'rganish

va tahlil qilish.

2.Yog'ochlarga mexanik ishlov berish o'quv-ustaxonasini jixozlashni o'rganish va tahlil qilish.

3.Yog'ochlarga mexanik berish o'quv-ustaxonasida ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish va tahlil qilish.

4.Yog'ochlarga mexanik ishlov berish o'quv-ustaxonasida rioya qilinadigan sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

9-mavzu: Metallarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasini jixozlash va ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish(4s).

Reja:

1.Metallarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasining tuzilishini o'rganish va tahlil qilish.

2.Metallarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasini jixozlashni o'rganish va tahlil qilish.

3.Metallarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasida ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish va tahlil qilish.

4.Metallarga qo'lda ishlov berish o'quv-ustaxonasi da rioya qilinadigan sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

10-mavzu: Metallarga mexanik ishlov berish amaliyotining o'rin va vazifalari(4s). Reja:

1.O'quv ustaxonalaridagi metall kesish dastgohlari bilan tanishish.

2.Metall kesish dastgohlari ish o'rnini tashkil qilish va havfsizlik texnikasi qoidalarini o'zlashtirish.

3.Metall kesish dastgohlarini boshqarish va sozlashni o'rganish.

4.Yuza tozaliklari va o'lcham aniqliklarni tekshirish qurilmalari, nazorat o'lchov asboblari turlari va ularni qo'llash hamda texnologik xujjatlar haqida asosiy ma'lumotlar bilan tanishish.

5.Metallarga mexanik ishlov berish o'quv-ustaxonasida rioya qilinadigan sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

11- mavzu: Pazandachilik xonalarini jixozlash va ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish(4s).

Reja:

1.Umum o'rta ta'lim maktablari pazandachilik xonasining tuzilishini o'rganish va tahlil qilish.

2.Umum o'rta ta'lim maktablari pazandachilik xonasini jixozlashni o'rganish va tahlil qilish.

3.Umum o'rta ta'lim maktablari pazandachilik xonasida ish o'rnini tashkil qilishni o'rganish va tahlil qilish.

4.Pazandachilik bo'yicha mashg'ulotlarda amal qilinadigan sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

12-mavzu: Gazlamalarga ishlov texnologiyasi bo'yicha mashg'uloylar ni tashkil qilishni o'rganish(4s).

Reja:

- 1.O'quv-tikuv ustaxonasining tuzilishini o'rganish va tahlil qilish.
- 2.O'quv-tikuv ustaxonasini jixozlashni o'rganish va tahlil qilish.
- 3.O'quv-tikuv ustaxonasida ish o'rini tashkil qilishni o'rganish va tahlil qilish.
- 4.Pazandachilik bo'yicha mashg'ulotlarda amal qilinadigan sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

13-mavzu: To'garak mashg'ulotining yillik ish rejalarini tuzishva uni tashkil qilish(4s).

Reja:

- 1.To'garak mashg'uloti haqida malumot berish.
- 2.Texnologiya fanidan qanday to'garak mashg'ulotlari olib boriladi.
- 3.To'garak mashg'uloti uchun yillik ish reja tuzish.
- 4.To'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish.
- 5.To'garak mashg'ulotlarda amal qilinadigan sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

14- mavzu: Metall va qotishmalarning xossalarini o'rganish(4s).

Reja:

1. Metall va qotishmalarning xossalari haqida tushuncha bering. Singan joyga qarab namuna materialini aniqlang.
- 2.Metallarning fizikaviy va kimyoviy xossalarini o'rganish.
- 3.Metallarning mexanikaviy xossalarini o'rganish.
4. Metallarning texnologik va eksplutatsion (ishlatilish) xossalarini o'rganish.

15-mavzu: Texnik ijodkorlik konstruksiyalashdan yakka tartibdagi topshi riqlarni bajarilish tartibi bilan talabalarni tanishtirish(4s).

Reja:

1. O'tgan o'quv yillari davomida talabalar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar tanishtirishni boshlaydi.
- 2.Talabalar o'qituvchi tomonidan taklif etilgan va kafedra tomonidan tasdiqlangan topshiriqlar ro'yxati bilan tanishtirish.
- 3.Talabalarga buyumning tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirishda xarakterlanadigan modellarning kinematik va prinsipal sxemalaridan foydalanilinish.

III.Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- kasb tiplari, guruhlari sinflari, po'quvchilarning xususiyatlarini o'rganib tashxisdan o'tkazadilar va tavsiyalar beradilar;
- kasblar klassifikatsiyasining umumiy ta'rifi;
- talabalarga "kasb" tushunchasining ma'nosini yoritib berish;
- ularni kasblarning klassifikatsiyalari bilan tanishtirish;
- talabalar gahar bir sohakasblarining jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot

berish.

III.1.Ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Texnologiya fanini maktab o'quv rejadagi o'rni bo'yicha tahlili
2. O'rta Osiyoda texnologiya fanini tarkib topishi
3. 1-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
4. 2--snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
5. 3-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
6. 4-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
7. 5-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
8. 6-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
9. 7-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
10. 8-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
9. 9-snifdagi Texnologiya fanining mazmuni va tarkibi
11. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi mavzusini o'tishda „Aqliy xujum“ metodidan foydalanish uchun 5-6-ta savol tuzing.
12. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'limiga oid referat tayyorlang.
13. Xalq hunarmandchiligining bugungi kundagi ahamiyati haqida hisobot-tayyorlash.
14. Aniq mavzularga moslab ko'rgazmali qurollar tayyorlang.
15. Texnik vositalardan foydalangan holda biror mavzuga dars ishlanma tayyorlang.
16. Maxsus fanlar o'quv rejalarini va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish.
17. Maxsus fanlarni o'qitishda joriy qilingan taqvimiy mavzuli rejani tahlil qilib, bitta mavzu bo'yicha dars rejasini tuzing.
18. Maxsus fanlar dasturlarini tayyorlash.
19. O'quv ustaxonasiga, o'qituvchi va o'quvchini ish o'rniga qo'yiladigan talablarni o'rganish.
20. Maxsus fan o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi
20. Yog'och va unga ishlov berish texnologisi mavzusiga „guruh“larga bo'lib o'qitish metodidan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
21. Metall va unga ishlov berish texnologisi mavzusiga „guruh“larga bo'lib o'qitish metodidan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlash.
22. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'limiga oid referat tayyorlang
23. Mahsulotlarga pazandachilik ishlov berish texnologiyasi bo'limiga oid referat tayyorlang.
24. Uy ro'zg'or asoslari” bo'limi mazmuni o'rganish bo'yicha referat tayyorlang.
25. Standartlash va sertifikatlashdan tanlab olingan mavzu bo'yicha test

	<p>tuzish.</p> <p>26. Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiy bo'yicha manbalarni o'rganish.</p> <p>27. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash bo'yicha tugarak ishlarini tashkil qilish metodlari.</p> <p>28. Zamonaviy robotlar tarkibiy tuzilmasi, ularning parametrlari va turkumlari</p> <p>29. Materiallarning xossalari o'rganish va tahlil qilish.</p> <p>30. Materiallarga ishlov berish stanoklari haqida ma'lumotlar tayyorlash.</p> <p>31. Aniq mavzularga moslab ko'rgazmali qurollar tayyorlang.</p> <p>III.2. Amaliy mashg'ulot bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari</p> <p>1. laboratoriya ishini rejalashtirish, o'tkazish uslubi va uni baholash.</p> <p>2. Ta'lim muassasalarining o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida jihozlar qo'yiladigan xavfsizlik talablarini o'rganish.</p> <p>3. O'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish majmualarida ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilishni o'rganish.</p> <p>4. Moddiy-texnik ta'minot bo'yicha xamkorlik ishlarini olib borishni o'rganish.</p> <p>5. Texnologiya fanida ekskursiyani amalga oshirish metodikasi.</p> <p>6. Texnologiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.</p> <p>7. Moddiy-texnika ta'minot turlari va vazifalarini o'rganish.</p> <p>8. O'quv ustaxonalarining mazmuni. O'quv ustaxonalarida texnik xujjatlarni o'rganish.</p> <p>9. Ta'lim muassasalarining o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini o'rganish.</p> <p>10. Chilangarlik ishlari haqida umumiy ma'lumot.</p> <p>11. Tikuvchilik ustaxonalarida ish o'rni tashkil qilish texnologiyasi. texnika xavfsizligi qoidalarini.</p> <p>12. Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar.</p> <p>13. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan metodik talablar.</p> <p>14. Darsdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish shakl va metodlari.</p> <p>15. Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Maktab o'quv rejasida texnologiya fanining o'rni, uning tarixiy taraqqiyoti va texnologiya fanining mazmuni va tarkibiy qusmlari haqida tushunchalarga ega bo'ladi;

	<ul style="list-style-type: none"> • Texnologiya ta'limining yo'nalishlari bo'yicha zarur bo'lgan boshlang'ich ko'nikma va malakalarni egallaydi; • Texnologiya ta'limi bo'yicha DTS va malaka talablari, o'quv rejasi va dasturi bilan tanishadi; • Texnologiya ta'limidan mashg'ulotlarni tashkil etish, o'tkazish, kurs ishi, bitirub malakaviy ishi va amaliyotlarni tashkil etish bo'yicha tushunchalarga ega bo'ladi.
4.	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar; • laboratoriya mashg'ulotlari; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyixalar.
5.	<p>VI. Kreditlarni to'plash uchun talablar :</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxoda yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p style="text-align: center;">Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaniing yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan</p>

	hisoblanadi.
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014 yil, 449 bet. 2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.-T.: 2009, 427 bet. 3. O.A.Qo'ysinov, V.N.Sattorov, H.S.Yakubova Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi (metodik qo'llanma) T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011, 79-bet 4. O.A.Qo'ysinov, H.S.Yakubova, F.S.To'rabekov, S.Rajabova. Mehnat ta'limi kasb tanlashga yo'llash fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013 yil 5. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov va boshqalar. Mehnat ta'limi 5-sinf darsligi T.: "Sharq" 2012, 235 bet. 6. Q.M. Abdullayeva Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari T. "Adabiyot" 2006 7. A.S.Iskandarov Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblari va stanoklar T "Fan va texnologiya" 2004 8. N.I. Makienko Sleserlikdan amaliy ishlar T "o'qituvchi" 1992 9. J.Ramizov. O'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar".T.: "O'qituvchi", 1990 y. 10. Mirbobev V.A. "Konstruksiya materiallari texnologiyasi" T.: "O'qituvchi" 2004 y. 11. R.S.Shermuhamedov, Yaxyayev A. E. Paarmenov Chilangarlik amaliy ishlar T. "Iqtisod moliya" 2007 <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) O'zbekiston, Toshkent 1997 yil. 2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan 3. Vazirlar Mahkamasining 06-aprel 2017 yildagi №187-son bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'limi standartlari va o'quv dasturi. 4. 5112100 - Технологик таълим бакалавриат таълим йуналишининг малака талаблари. Узбекистон Республикаси Олий ва урта махсус таълим вазирлигининг 2020йил 14.08. даги 418 - сонли буйруги билан тасдиқланган. 5. Mirziyoev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz".-Toshkent.: "O'zbekiston", 2018.-486 b. 6. Ashish Kashyap, Rashmi Sharan, Rishika Jalali Little Girls Dress Making Cogkqu Book Coryright 2011 UShA INTERNATSIONAL LIMITED 7. Arzimurodova M.S., Anorqulova G.M., Qayumova F.E. Ayollar milliy ko'ylagini

bichish va tikishni o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyanoma. T.: O'MKHTTKMO va UQTI. 2007.-60 bet.

8. I.Jabborova "Tikuvchilik texnologiyasi" -1996 yil.

9. Q.T. Olimov. «Tikuvchilik korxonalari jihozlari». O'quv qo'llanma

10. A.A.Maslov "Pazandachilik"- Toshkent, 1970 yil.

11. N.G.Proxorova va boshqalar. "Oziq-ovqat mollari tovarshunosligi" Toshkent-"O'qituvchi", 1991 yil.

12. A.T.Truxonova "Tikuvchilik texnologiyasi asoslari" Toshkent-"O'qituvchi" 1996 yil.

13. M.Muminova "Oziq-ovqatlar tayyorlash texnologiyasidan amaliy mashg'ulotlar" Toshkent-1995 yil.

14. Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi

15.K.B.Usmonov "Metall kesish asboblari" T "O'qituvchi" 2004

16.N.A.Muslimov, SH.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov va boshqalar. Mehnat ta'limi 5-sinf darsligi T.: "Sharq" 2012, 235 bet.

17. SH.S.Sharipov, Abduraimov Sh.S.,Zaripov I.R.,Qodirov B.E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik-T.:"Lesson Press"nashriyoti, 2022.,112b.

18.X.Sanaqulov va boshqalar. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. "Tafakkur bo'stoni" T.: 2015

19.O'.Q.Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, "INNOVATSIYA-ZIYO" -2019

21.G.Ahmedova, K.Mamajonova, O.Karimov. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil qilish (Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi misolida) Metodik qo'llanma. JizDPI 2019 yil.

Axborot manbalari

1. <http://www.Zivonet.uz>

2. <http://www.edu.uz>

3. <http://www.nadlib.uz>

4. <http://www.teoriva.ru>

5. <http://www.tarbiyaviy.uz>

6. <http://www.pedagog.uz>

7. Fan dasturi Jizzax Davlat pedagogika universiteti Kengashining 2022 yil
" " _____dagi _____ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

8.	<p>Fan uchun mas'ul: Umarov Raxim Tujiyevich- Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrası o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Xolmatov P.K. - JVXTXQTVUMOHM, Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent</p> <p>Ismoilov T.J. - JDPU, Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrası dotsenti</p>